

MUMTOZ ASARLAR LEKSIKASINI MORFEMIK TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Raximbayev Musobek Komiljon o'g'li-

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mumtoz o'zbek adabiyotida leksik birliklarni morfemik tahlil qilish masalalari zamonaviy lingvistik va raqamli yondashuvlar asosida yoritiladi. Muhammad Rizo Ogahiy g'azallaridagi arabcha, forsha va turkiy ildizli so'zlarning tarkibiy tuzilishi, ildiz va affikslarning ma'no aloqalari, tasavvufiy semantik qatlamlar, shuningdek, ularning poetik kontekstdagi funksional vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tokenizatsiya, lemmatizatsiya, morfemik segmentatsiya, semantik modellashtirish kabi tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari mumtoz matnlarga moslashtirilgan holda qo'llanadi. Natijada Ogahiy tilidagi tarixiy morfologik jarayonlar, badiiy ma'no uzviyligi va diniy-estetik tasvirning ichki strukturalari ilmiy asosda qayta yoritiladi.

Kalit so'zlar. Ogahiy, mumtoz adabiyot, morfemika, ildiz, affiks, tasavvuf, semantik modellashtirish, lemmatizatsiya, NLP, korpus lingvistika.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы морфемного анализа лексических единиц в узбекской классической литературе с использованием современных лингвистических и цифровых подходов. На материале газелей Мухаммада Ризо Огахий анализируются структурные особенности слов с арабскими, персидскими и тюркскими корнями, их семантические связи, суфийские смысловые уровни и функциональные роли в поэтическом контексте. В исследовании применяются методы токенизации, лемматизации, морфемной сегментации и семантического моделирования, адаптированные для обработки классических текстов. В результате выявляются исторические морфологические процессы и эстетико-духовная целостность языка Огахий.

Ключевые слова. Огахий, классическая литература, морфемика, корень, аффикс, суфизм, семантическое моделирование, лемматизация, NLP, корпусная лингвистика.

ABSTRACT

This article explores the morphemic analysis of lexical units in classical Uzbek literature through modern linguistic and digital approaches. The study examines Muhammad Rizo Ogahiy's ghazals, focusing on the structural composition of words with Arabic, Persian, and Turkic roots, the semantic relations between roots and

affixes, the mystical (Sufi) semantic layers, and their functional roles within poetic expression. Techniques such as tokenization, lemmatization, morphemic segmentation, and semantic modeling are applied using Natural Language Processing (NLP) frameworks adapted for classical texts. The research reveals historical morphological development and the spiritual-aesthetic unity of Ogahiy's poetic language.

Keywords: *Ogahiy, classical literature, morphemics, root, affix, Sufism, semantic modeling, lemmatization, NLP, corpus linguistics.*

KIRISH

Mumtoz o'zbek adabiyoti tarixning ko'p asrlik yo'nalishlari, tasavvufiy-falsafiy tafakkur, badiiy mushohada va estetik didning uyg'unlashgan ifodasi bo'lib, unda til qatlamlari o'zining semantik zaxiralari bilan nihoyatda boy va murakkab ko'rinishga ega. Xorazm adabiy muhitining yirik vakili Muhammad Rizo Ogahiy ijodi bu jarayonning yorqin namunasidir. Uning g'azallari nafaqat adabiy mulk, balki o'zbek tilining tarixiy morfologik tizimini o'rganish uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. G'azallarda ishlatilgan so'z shakllari, ayniqsa arabcha va forsha ildizlariga tayangan leksik birliklarning o'zbek morfologiyasi bilan sintez tarzida uyg'unlashuvini kuzatish mumkin. Mumtoz o'zbek adabiyoti tarixning ko'p asrlik yo'nalishlari, tasavvufiy-falsafiy tafakkur, badiiy mushohada va estetik didning uyg'unlashgan ifodasi bo'lib, unda til qatlamlari o'zining semantik zaxiralari bilan nihoyatda boy va murakkab ko'rinishga ega. "Ulug' o'zbek shoiri, tarixnavis, tarjima maktabining asoschisi va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy 1809-yil 17-dekabrda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida tug'ilgan"[1]. Xorazm adabiy muhitining yirik vakili Muhammad Rizo Ogahiy ijodi bu jarayonning yorqin namunasidir. Uning g'azallari nafaqat adabiy mulk, balki o'zbek tilining tarixiy morfologik tizimini o'rganish uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

"Morfema strukturasi jihatidan bo'linmas holdagi so'zning o'zak bilan bir xil ko'rinishda kelishi bu elementlarning yaqin munosabatini ko'rsatadi"[2]. "Affiks (qo'shimcha) morfema mustaqil qo'llana olmaydigan, asos morfemaga qo'shilib, unga turlicha qo'shimcha ma'no yuklaydigan qism"[3].

G'azallarda ishlatilgan so'z shakllari, ayniqsa arabcha va forsha ildizlariga tayangan leksik birliklarning o'zbek morfologiyasi bilan sintez tarzida uyg'unlashuvini kuzatish mumkin.

*Ey borcha ulus xotiri asrorig'a dono,
Sandursan alar mushkili hallig'a tavono.*

Misralari bilan boshlanadigan gʻazal ham ana shunday murakkab leksik va semantik qatlamlarga ega. Bu baytda shoir ilohiy zotning qudratini tasvirlar ekan, “borcha”, “ulus”, “xotiri asror”, “mushkili halli”, “tavono” kabi birliklar orqali bir vaqtning oʻzida maʼrifiy, falsafiy va ilohiy maʼno zanjirini vujudga keltiradi. “Borcha” birlik tarkibida turkiy ildiz boʻlib, unga qoʻshilgan “-cha” umumlashtirish, jamlik maʼnosini kuchaytirgan affiksdir. “Ulus” esa eski oʻzbek adabiy tilida “el, xalq” maʼnosini bildirgan. Shoirning “xotiri asror” birikmasida esa ikki soʻzning badiiy metaforik qoʻshilishi mumkin: “xotir” – qalb, “asror” – sirlar demakdir. Bu yerda “qalb sirlarining borchasi” degan chuqur tasavvufiy maʼno yotadi. Shu tarzda birgina baytning oʻzi morfemik birliklarning oʻzaro semantik bogʻlanishini koʻrsatib turadi.

Mumtoz matnlarda leksik birliklar koʻpincha metaforik obrazlash orqali kengaytiriladi. Masalan,

Kayfiyyati zotinggʻa tafakkur nechuk aylay,

Kim ojiz aning dargohida yuz oqil-u dono.

Misrasi ilohiy zotning kayfiyatini, yaʼni mavjudlik mohiyatini aql bilan anglab boʻlmasligi haqida soʻz yuritadi. Bu yerda “kayfiyyat” arabcha ildizga ega boʻlib, “holat, mazmuniy tarkib” maʼnosini bildiradi. Soʻz tarkibi – *kayfiyyat* + *i* (izofat), yaʼni “zotning kayfiyati”. “Tafakkur” esa “fikrlash, mushohada qilish” maʼnosini bildiradi. Shoir “yuz oqil-u dono” iborasini ishlatib, inson aqlining chegaralanganligini taʼkidlaydi. “Oqil”, “dono” – bular oʻsha davr ilmiy-falsafiy maktablarida eng oliy maqtoʻv soʻzlari boʻlgan. Demak, Ogahiy timsolida inson aqli bilan ilohiy haqiqatning oʻrtasidagi masofa til birliklari orqali morfologik darajada ham koʻrinadi.

Gʻazalning keyingi qismida shoir:

Hech kim xati avroqi kamoling oʻquy olmas,

Har necha esa lavhi falak satrigʻa xono.

deya ilohiy haqiqatning yuksakligini yana bir bor tasdiqlaydi. “Xati avroqi kamol” – bu “kamolot sahifalarining yozuvi”. “Avroq” – varaq, “kamol” – mukammallik. “Lavh” – “lavhul-mahfuz”, yaʼni taqdir yozilgan ilohiy sahifa. “Satri” – satr, yozilgan qator. Demak, shoir ilohiy yozuvni odam anglay olmasligini tilning metaforik-leksik birliklari orqali ifodalagan.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida mumtoz adabiyot matnlarini tahlil qilishda anʼanaviy filologik yondashuvlar va zamonaviy kompyuter lingvistika usullari uygʻun holda qoʻllandi. Avvalo, tanlangan gʻazal matni ishonchli nashr va qoʻlyozmalar bilan solishtirilgan holda elektron shaklga keltirildi. Matnni raqamlashtirish jarayoni uning orfografik tuzilishini asliga mos saqlashni taqozo etadi,

chunki har bir grafema, hatto qofiya uchun yuzaga kelgan fonetik o'zgarish ham morfemik tahlilda semantik yuk tashishi mumkin. Shundan so'ng matn kompyuterli qayta ishlashga tayyor holatga keltirilib, birliklarga ajratish (tokenizatsiya) bosqichi amalga oshirildi. Bu bosqichda so'z shakllari kontekstual birikmalarni buzmasdan aniqlanishiga e'tibor berildi.

Tokenizatsiyadan keyin lemmatizatsiya jarayoni bajarildi. Lemmatizatsiya so'zning lug'aviy asosini tiklash bo'lib, mumtoz matnlar uchun ayniqsa muhimdir. Chunki Ogahiy g'azallarida ko'p hollarda forsiy izofa, tasavvufiy terminlar, arabiy jamlik shakllari, tarixiy fonetik o'zgarishlar uchraydi. Bu jarayonda arabcha va forsha ildizlarga asoslangan lug'aviy birliklar ham o'z ildiz shakliga qaytarildi. Masalan, *ushshoq* birlik shakli umumiy lemmatik ko'rinishda *oshqlar*, *tamug'ig'a - do'zaxga*, *yono - yana* sifatida belgilandi. Shu bilan birga, tilning tarixiy qatlamini buzib qo'ymaslik maqsadida lemmatizatsiya jarayoni sun'iy soddalashtirishdan yiroq holda olib borildi.

Shundan so'ng **morfemik segmentatsiya** bosqichi amalga oshirildi. Har bir so'z tarkibidagi ildiz, so'z yasovchi affiks va shakl yasovchi qo'shimchalar ajratildi. Qadimgi o'zbek adabiy tilida affikslarning fonetik o'zgaruvchanligi yuqori bo'lgani sababli, segmentatsiya jarayoni faqat shakliy belgilar asosida emas, balki semantik munosabatlar asosida ham olib borildi. Masalan, *bodayi vasl* birikmasidagi izofa shakli (-yi) fonetik moslashuv natijasi bo'lsa-da, u sintaktik bog'lovchi vazifani bajaradi va shu tarzda morfemik birlik sifatida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida **semantik modellash** yondashuvi qo'llanildi. Bu bosqichda ildiz va affikslar o'rtasidagi ma'no munosabatlari tarmoq modeli ko'rinishida baholandi. Tasavvufiy an'ana va ma'naviy mazmunni aks ettiruvchi leksik birliklar alohida semantik markaz sifatida qayd qilindi. Masalan, *ishq*, *vasl*, *jon*, *kul*, *tamug'*, *lutf*, *dargoh* kabi birliklar ma'no tizimida markaziy uzel bo'lib chiqdi va ular atrofidagi leksik birliklar ma'no tarqalish doirasi sifatida qayd qilindi. Shu tarzda g'azalning semantik tuzilishi tamoyillar asosida qayta tiklandi.

Zamonaviy kompyuter lingvistikasining qo'llanishi bu tadqiqotda **NLP (Natural Language Processing)** modellaridan foydalanish orqali amalga oshirildi. Morfemik tahlil jarayonida UzbekMorphAnalyzer, Stanza, UDPipe kabi ochiq platformalardan foydalanish matnning kompyuter tomonidan o'qilishini yengillashtirdi. Biroq mumtoz she'riyatning o'ziga xos poetik dizayni sababli, jarayon faqat avtomatik vositalar orqali emas, balki qo'l mehnati bilan murakkab sintaktik tuzilmalarni qayta tekshirish yordamida yakunlandi. Demak, tadqiqotning asosiy metodologik tamoyili an'anaviy filologik tahlilni zamonaviy korpus lingvistikasi va algoritmik qabillarga uyg'unlashtirishdir.

Natijalar. Ushbu gʻazalning morfemik tarkibini oʻrganishda zamonaviy kompyuter lingvistika yondashuvlari ayniqsa foydalidir. Avvalambor matn raqamlashtiriladi, soʻng tokenizatsiya orqali soʻzlar ajratiladi. Har bir soʻzning ildizi aniqlanadi, soʻz yasovchi va shakl yasovchi affikslar belgilanadi. Chunki mumtoz sheʼriyatda fonetik kechimlar, radif va qofiya talabidan kelib chiqqan fonetik oʻzgarishlar koʻp uchraydi.

Misol uchun:

1. **Tamugʻigʻa** soʻzi hozirgi adabiy tilga *doʻzaxga* tarzida qayta tiklanadi.
2. **Yono** shakli hozirgi *yana* soʻziga teng keladi.
3. **Ushshoq** arabchadan kirgan jamlik shakli boʻlib, “oshqlar, sevuvchilar” maʼnosini bildiradi.

Gʻazalning mazmuniy choʻqqisida:

Ushshoq tani joni erur bodayi vasling,

Lutf ayla-yu jon yetkur oʻluk jismima jono.

Bu yerda “bodayi vasl” – “visol sharobi” degan tasviriy vosita orqali ilohiy muhabbatning jon bagʻishlovchi kuchi tasvirlanadi. Morfemik tahlilda “boda” – sharob, “-yi” – izofat, “vasl” – birlashish, yetishish maʼnosini beradi. Bu birikma sof tasavvuf terminologiyasiga xosdir, yaʼni Allohga yaqinlashuv ruhiy “mastlik” holati sifatida talqin qilinadi.

Gʻazalning yakuniy baytida Shoir:

Chun Ogahiy kul boʻldi yona ishqing oʻtigʻa,

Yondurma tamugʻ oʻtigʻa, yo Rab, ani yono.

deya oʻzini “ishq oʻtida kul boʻlgan oshiq” qiyofasida taqdim etadi. “Yondurma” – qadimgi feʼl shakli boʻlib, “yon-dur-ma”, yaʼni “yonmoqni qaytarmagin, undan boshqa otashga qaytarma” maʼnosini beradi. Shoir bu yerda “ishq otashi”ni “doʻzax otashi”ga qarshi qoʻyadi. Bu tasavvufda yaxshi tanilgan qarama-qarshilik: haq otashi poklaydi, doʻzax otashi yoʻq qiladi.

Zamonaviy lingvistika bunday birikmalarni semantik modellashirish orqali tasvirlaydi. Yaʼni ildizlar oʻrtasidagi semantik tarmoqlar tuziladi, maʼno bogʻlanishlari algoritmik tarzda qayd etiladi. Bunda korpus lingvistika yondashuvi muayyan matnlar majmuasida leksik birliklarning takrorlanish chastotasi va semantik tarqoqligi oʻrganiladi. Ogahiy gʻazallarida “ishq”, “vasl”, “jon”, “kul”, “tamugʻ”, “lutf”, “dargoh” kabi soʻzlar eng koʻp uchraydigan va asosiy ruhiy-falsafiy sema markazini tashkil etuvchi birliklar sifatida namoyon boʻladi.

Morfemik tahlilning zamonaviy ahamiyati shundaki, u mumtoz tilni hozirgi til bilan bogʻlaydi, semantik uzluksizlikni tiklaydi. Bunday tadqiqotlar nafaqat til tarixini, balki milliy tafakkur shakllanishini ham ochib beradi. Chunki mumtoz

adabiyot atrofida shakllangan ma'naviy makon, falsafiy-ruhiy dunyoqarash, ma'rifat, tasavvufiy tafakkur, ijtimoiy ong va estetik hislar uyg'unligidan iborat.

Shu bois, mumtoz matnlarni morfemik tahlil qilishda faqat grammatik tuzilmani emas, balki tasavvufiy semantik mezonlarni ham hisobga olish lozim. Ogahiy tili – bu nafaqat so'zlar majmuasi, balki ruhiy holatlarning poetik shaklga aylangan, badiiy semantika bilan yo'g'rilgan ma'naviy matritsadir.

Xulosa sifatida, o'rganilgan g'azal misolida shuni aytish mumkinki:

1. Mumtoz adabiy matnda har bir morfema ma'no yuklaydi.
2. So'z shakllari tasavvufiy ma'nolar bilan to'yingan bo'lib, ular faqat lug'aviy emas, ruhiy talqin ham talab etadi.
3. Raqamlashtirilgan morfemik tahlil mumtoz merosni zamonaviy ilmiy muomalaga qaytarishning eng samarali vositasidir.
4. Ogahiy ijodini kompyuter lingvistika yordamida tizimli o'rganish o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotini aniqlashda strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mengliyeva M. Aspektuallik tizimi va uning funksional-semantik maydon sifatidagi mohiyati // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechimlar, istiqbollar. – Tashkent, 2022. – Vol. 1, No. 1. – B. 196.
2. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili (morfemika, so'z yasalihi va morfologiya): o'quv qo'llanma. – Toshkent : Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2009. – B. 10.
3. Allayorova N. So'z yasalihi usullari, morfema va uning turlari // Tillarning o'qitish metodikasi sohasidagi zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (Samarqand, 2025-yil 11-12-mart). – Samarqand : Zarmed Universiteti, 2025. – B. 125-128.